

Transport sohasidagi innovatsiyalarga bag'ishlangan haftalik

2022 13 June

2022-yilning 13-iyun kuni Toshkentda transport sohasidagi innovatsion yangiliklarga bag'ishlangan transport haftaligi o'z ishini boshladi. Tadbir Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi bilan hamkorlikda tashkil etildi. "Transport sohasida innovatsion texnologiyalar haftaligi"da "Uzbekistan Airways" Aksiyadorlik jamiyati ham ishtirok etmoqda.

Haftalik doirasida aviakompaniya mutaxassislari korxonalar resurslarini rejalashtirish tizimi va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarishning tizimli dasturini joriy etish bo'yicha rejalarni o'rtoqlashdilar, shuningdek, havo kemalarida texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish tizimi va kompaniya veb-sayti orqali elektron chiptalarni sotish tizimini tubdan takomillashtirish, yangi xizmat turlarini joriy etish, faoliyat darajasini oshirish haqida so'zlab berdilar.

Transport haftaligi 17-iyungacha davom etadi.